

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№3

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, mart.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI TIZIMLASHTIRILGAN TAHDIDLAR.....	40
Qodirov Tuyg'un Uzoqovich, Nabiyev Bexzod Shavkatovich	
SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYA VA TEKNOLOGIK MODERNIZATSIYANING O'RNI	44
Boboqulov Sanjar Bahromqulovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI BAHOLASHNING USLUBIYOTI VA UNING SOLIQ TIZIMIDA QO'LLANILISHI	49
To'xtabayev Oybek Odilovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	56
Ismailov Bobir Salomovich	
TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	62
Yangiboyev F.B.	
MINTAQAVIY IQTISODIY SALOHİYATDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	68
Turayev Og'abek Kaxramonovich	
XORIJIY MAMLAKATLARDA TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH TAJRIBASI.....	75
Yusupova Feruza Yo'ldoshevna	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BOSHQARISHNING INTEGRATSION VA ADAPTIV MODEL.....	83
Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
QURILISH TASHKILOTLARI FAOLIYATINING MOLİYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA BAHOLASH	89
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
ICHKI NAZORAT VA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDAGI XAVFLARNI BOSHQARISH	94
Islamova Nargiza Mirzaxidovna	
TURIZMNING MINTAQADA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	104
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI TAHLILI	111
Begamov S.X.	
RETHINKING JOB CREATION: ONTOLOGICAL AND EPISTEMOLOGICAL FOUNDATIONS OF MACROECONOMIC EMPLOYMENT ANALYSIS.....	116
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
HUDUDIY TURIZM KLASSTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	125
Ro'zimova Xusnora Mirzobek qizi	
SUG'URTACHILIK VA O'ZBEKISTONDA SUG'URTA SEKTORINING HOLATI.....	129
O'runboyeva Sotima Alisher qizi	



SUG'URTACHILIK VA O'ZBEKISTONDA SUG'URTA SEKTORINING HOLATI

O'runboyeva Sotima Alisher qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti,
"Turizm va mehmondo'stlik" mutaxassisligi magistranti

E-mail: urunbayevasotima@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada sug'urtachilik faoliyatining nazariy-huquqiy asoslari hamda O'zbekistonda sug'urta sektorining joriy holati tahlil qilinadi. Tadqiqotda sug'urta bozorining iqtisodiyotdagi o'rni, uning moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati, sug'urta xizmatlari turlari va bozordagi asosiy ishtirokchilar faoliyati yoritib berilgan. Shuningdek, mamlakatda sug'urta tizimini isloh qilish jarayonlari hamda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi faoliyati doirasidagi o'zgarishlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta, sug'urta bozori, moliyaviy barqarorlik, raqamlashtirish, qayta sug'urta, sug'urta madaniyati, iqtisodiy rivojlanish.

Abstract. This article analyzes the theoretical and legal foundations of insurance activities as well as the current state of the insurance sector in Uzbekistan. The study highlights the role of the insurance market in the economy, its importance in ensuring financial stability, the types of insurance services, and the activities of the main market participants. Furthermore, the article examines the processes of reforming the insurance system in the country and the measures taken by the state, particularly the changes implemented within the framework of the activities of the Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan and the Insurance Market Development Agency.

Key words: insurance, insurance market, financial stability, digitalization, reinsurance, insurance culture, economic development.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретико-правовые основы страховой деятельности, а также текущее состояние страхового сектора в Узбекистане. В исследовании освещаются роль страхового рынка в экономике, его значение в обеспечении финансовой устойчивости, виды страховых услуг и деятельность основных участников рынка. Кроме того, рассматриваются процессы реформирования страховой системы в стране и меры, принимаемые государством, в частности изменения, осуществляемые в рамках деятельности Министерства финансов Республики Узбекистан и Агентства по развитию страхового рынка.

Ключевые слова: страхование, страховой рынок, финансовая устойчивость, цифровизация, перестрахование, страховая культура, экономическое развитие.

KIRISH

Sug'urtachilik — jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkiy manfaatlarini, ularning hayoti, sog'ligi, daromadi yoki faoliyatiga zarar yetkazilishi bilan bog'liq tavakkalchiliklardan himoya qiluvchi iqtisodiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Sug'urta sektorining rivojlangan G'arb davlatlarida yuqori darajada shakllanganligi va institutsionallashtirilganligi ba'zan sug'urta instituti va sektori faqat G'arb mamlakatlarida paydo bo'lgan degan noto'g'ri qarashlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Biroq, bu inson hayotining tabiati bilan to'liq mos kelmaydi. Xavfsizlikni izlash biror jamiyat yoki hududga xos bo'lgan hodisa emas, balki barcha jamiyatlar va hududlarga xos umumiy xususiyatdir. Chunki inson hayoti bilan bog'liq xavf-xatarlar dunyoning barcha hududlarida uchraydi.

Shu sababli sug'urtaning shakllanishi deyarli insoniyat sivilizatsiyasi tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Sug'urtaning dastlabki ko'rinishlari qadimgi Xitoy va Misr sivilizatsiyalarida paydo bo'lgan. Albatta, bu dastlabki shakllar hozirgi zamonaviy sug'urta tizimidan ancha farq qilgan. Ular ibtidoiy va sodda ko'rinishda bo'lgan bo'lsa-da, ularning asosiy maqsadi xavflarni kamaytirish va moliyaviy yo'qotishlarning oldini olishdan iborat edi.



Taxminan miloddan avvalgi 5000-yillar atrofida sug'urta munosabatlariga o'xshash iqtisodiy amaliyotlar kuzatilgan. Miloddan avvalgi 3000-yillarda Xitoy savdogarlari o'z tovarlarini xavfni kamaytirish maqsadida bir kemaga yuklash o'rniga bir nechta kemalarga taqsimlab tashishgan. Bu esa yo'qotish ehtimolini kamaytirishga xizmat qilgan. Miloddan avvalgi 2000-yillarda esa Bobil savdogarlari o'z mollarini turli tavakkalchiliklardan himoya qilish usullarini izlaganlar.

Tarixda mashhur qonun chiqaruvchi sifatida tanilgan Hammurabi qonunlarida savdogarlarning yo'qotishlarini qoplashga qaratilgan Darmatha nomli shartnoma mavjud bo'lgan. Ushbu shartnoma yuk tashuvchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarda qo'llanilgan. Rimliklar esa Puni urushlari davrida dengiz transportida yuzaga kelgan zararlarni qoplash maqsadida maxsus sug'urta fondlarini tashkil etganlar.

Sug'urtaning tarixi uzoq davrlarga borib taqalsa-da, zamonaviy sug'urta tizimining shakllanishi nisbatan keyingi davrlarga to'g'ri keladi [1]. Zamonaviy sug'urta tizimining rivojlanishini 1250-yillardan boshlab kuzatish mumkin. Mukofot asosida ishlaydigan dastlabki sug'urta shakllari Shimoliy Italiya shaharlarida paydo bo'lgan. Jumladan, Venetsiya, Florensiya va Genuya shaharlari ushbu jarayonning markazlari hisoblangan.

1250-yillarning o'rtalarida venetsiyalik savdogarlar dengiz orqali yuk tashish jarayonida qaroqchilar hujumi yoki boshqa xavflar tufayli yuzaga keladigan zararlarni sug'urtalash amaliyotini joriy qilganlar. Tarixda qayd etilgan dastlabki sug'urta shartnomalaridan biri Genuya va Mayorka o'rtasida yuk tashish jarayonida tovarlarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida tuzilgan. Dastlabki sug'urta kompaniyalaridan biri ham aynan Genuya shahrida tashkil etilgan.

Keyinchalik sug'urta tizimi ikki asosiy yo'nalishga ajraldi:

- dengiz sug'urtasi;
- quruqlik sug'urtasi.

Birinchi aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi 1663-yilda Parij shahrida tashkil etilgan.

Angliyada birinchi sug'urta qonuni 1601-yilda qabul qilingan. Mulk sug'urtasi 1710-yilda Angliyada rivojlangan bo'lsa, yong'indan sug'urtalash tizimi ham shu davrlarda keng tarqalgan. Birinchi hayot sug'urtasi esa 1807-yilda Italiyada shakllangan.

Sug'urta tizimining asosiy maqsadi — turli tavakkalchiliklar natijasida yuzaga keladigan zararlarni qoplash hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdan iboratdir.

Sug'urta munosabatlarining asosiy ishtirokchilari quyidagilardan iborat:

- sug'urtalovchi (sug'urta kompaniyasi);
- sug'urtalanuvchi (jismoniy yoki yuridik shaxs);
- benefisiar (foyda oluvchi shaxs);
- sug'urta vositachilari (agentlar va brokerlar).

Sug'urtaning asosiy ikki turi mavjud:

- majburiy sug'urta;
- ixtiyoriy sug'urta.

Majburiy sug'urta — davlat tomonidan belgilangan va bajarilishi majburiy hisoblangan sug'urta turidir. Ixtiyoriy sug'urta esa jismoniy yoki yuridik shaxslarning o'z xohishiga ko'ra amalga oshiriladi.

Mamlakatdagi sug'urta sektorining holatini to'liq anglash va uning iqtisodiyotdagi o'rnini baholash uchun sektor hajmi, narx raqobati, aholining sug'urta tizimiga bo'lgan ishonchi, sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda davlatning ushbu sohaga nisbatan yuritayotgan siyosatini tahlil qilish zarur.

Bundan tashqari, sug'urta sektori rivojlanishiga jamiyatning umumiy madaniy darajasi ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli madaniy omillarni o'rganish sug'urta bozorining holatini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sug'urtachilik faoliyati va sug'urta bozorining rivojlanishi iqtisodiyotda moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi muhim institutlardan biri sifatida ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlarda sug'urta tizimining iqtisodiy ahamiyati, risklarni boshqarishdagi o'rnini hamda sug'urta bozorining rivojlanish omillari keng tahlil qilingan.

Mahalliy olimlardan Sh. Abdullayeva o'zining "Sug'urta ishi" nomli ilmiy asarida sug'urta tizimining nazariy asoslari, sug'urta xizmatlari turlari hamda sug'urta kompaniyalarining iqtisodiy faoliyatini yoritib bergan. Muallif sug'urtaning asosiy vazifasi tavakkalchiliklarni moliyaviy jihatdan qoplash hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdan iborat ekanligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, B. Yo'ldoshev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sug'urta nazariyasi va amaliyoti, sug'urta bozorining iqtisodiy mexanizmlari hamda sug'urta xizmatlari rivojlanishining institutsional jihatlari o'rganilgan. Muallif sug'urta bozorining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishi va moliyaviy xavfsizlikni mustahkamlash bilan chambarchas bog'liqligini qayd etadi.



O'. Rasulov esa o'z tadqiqotlarida moliya tizimi tarkibida sug'urtaning o'rni, sug'urta fondlarining shakllanishi hamda ularning iqtisodiy jarayonlarga ta'sirini tahlil qilgan. Muallif sug'urta sektori iqtisodiy risklarni kamaytirish hamda investitsion muhitni yaxshilashda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi.

Xorijiy olimlar tomonidan ham sug'urta tizimining iqtisodiy ahamiyati keng o'rganilgan. Jumladan, G. Skipper sug'urta bozorining iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini tahlil qilib, sug'urta sektorining rivojlanishi investitsiya faoliyatining kengayishi va moliyaviy barqarorlikning mustahkamlanishiga xizmat qilishini asoslab bergan.

H. Outreville tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sug'urta bozorining rivojlanish darajasi bilan mamlakatning iqtisodiy o'sishi o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligi aniqlangan. Muallif sug'urta xizmatlariga bo'lgan talab aholining daromad darajasi, iqtisodiy rivojlanish va moliyaviy infratuzilmaning shakllanishi bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, P. Zweifel va R. Eisen o'z ilmiy ishlarida sug'urtaning iqtisodiy mohiyati, risklarni boshqarish mexanizmlari hamda sug'urta bozorining institutsional rivojlanish jarayonlarini tahlil qilganlar. Ularning tadqiqotlarida sug'urta tizimi bozor iqtisodiyotining muhim moliyaviy instituti sifatida baholanadi.

Umuman olganda, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari sug'urta bozorining iqtisodiyotdagi o'rni, risklarni boshqarishdagi ahamiyati hamda sug'urta xizmatlari rivojlanishining institutsional asoslarini ochib beradi. Mazkur tadqiqotlar O'zbekistonda sug'urta sektorini rivojlantirish, sug'urta xizmatlari sifatini oshirish hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekiston sug'urta bozori mustaqillikdan so'ng shakllana boshlagan bo'lib, bugungi kunda mamlakat moliyaviy tizimining muhim bo'g'inlaridan biri sifatida faoliyat yuritmoqda. Sug'urta sektori iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash hamda moliyaviy xavfsizlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, u fuqarolar va xo'jalik yurituvchi subyektlarni turli moliyaviy xavflardan himoya qilishda muhim vosita hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida sug'urta sohasini tartibga soluvchi huquqiy baza izchil shakllantirilgan bo'lib, ushbu soha barqaror rivojlanib bormoqda. Tadqiqot jarayonida sug'urta bozorining huquqiy asoslari, uning iqtisodiyotdagi o'rni hamda sohadagi rivojlanish tendensiyalari tahlil qilindi. Shuningdek, statistik ma'lumotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va rasmiy manbalar asosida sug'urta sektorining hozirgi holati baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlardan biri "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonun hisoblanadi (2019–04–23, yangi tahrir). Mazkur qonun sug'urta kompaniyalari faoliyatini tartibga soladi, ular uchun zarur standartlar va talablarni belgilaydi hamda sug'urta shartnomalari va sug'urta da'volarini ko'rib chiqish tartibini aniqlab beradi.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda qabul qilingan Prezident farmonlari va qarorlari sug'urta sektorini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu hujjatlar sug'urta xizmatlarini raqamlashtirish, sug'urta kompaniyalarining ustav kapitalini oshirish hamda sohani xalqaro sug'urta va moliya standartlariga moslashtirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasida sug'urta bozorini nazorat qilish va litsenziyalash funksiyasi Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan. Markaziy bank sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini monitoring qiladi, ularning faoliyatini nazorat qiladi hamda yangi sug'urta kompaniyalariga litsenziya beradi. Shu bilan birga, ushbu organ sug'urta bozorini rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda fuqarolarga sifatli sug'urta xizmatlarini ko'rsatishni rag'batlantirish bo'yicha muhim vazifalarni amalga oshiradi.

So'nggi yillarda O'zbekiston sug'urta bozori barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. Ayniqsa, hayotni sug'urtalash, transport vositalarini sug'urtalash, mol-mulk sug'urtasi hamda tibbiy sug'urta yo'nalishlarida sezilarli o'sish kuzatilmoqda. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, xalqaro sug'urta kompaniyalari bilan hamkorlikni rivojlantirish hamda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish sug'urta bozorining barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston sug'urta bozorining hozirgi holati 2024–2025-yillar kesimida tahlil qilinadigan bo'lsa, ushbu davr sug'urta sektorida jadal rivojlanish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda tizimdagi tarkibiy islohotlar bilan tavsiflanadi. Natijada sug'urta sektori mamlakat moliya bozorining eng tez rivojlanayotgan sohalaridan biriga aylandi. Bozor rivojlanishi davlat nazoratining kuchayishi, sug'urta xizmatlari sifatining oshishi hamda mijozlar uchun qulay sharoitlarning yaratilishi bilan hamohang tarzda amalga oshirilmoqda.


Shu bilan birga, 2025-yilning yanvar–noyabr oylarida sug'urta xizmatlari hajmi sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, mazkur davrda sug'urta xizmatlari hajmi 10,9 trln so'mni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2024-yilning yanvar–noyabr oylariga nisbatan 2,9 trln so'mga ko'pdir.



Statistik ma'lumotlarga ko'ra, sug'urta xizmatlari tarkibida eng katta ulush quyidagi yo'nalishlarga to'g'ri keladi:

- baxtsiz hodisalardan sug'urtalash;
- avtotransport vositalari va boshqa transport turlarini sug'urtalash;
- yuk va mol-mulkni sug'urtalash;
- boshqa sug'urta xizmatlari.

Mazkur yo'nalishlar umumiy sug'urta xizmatlari hajmining 81,7 foizini tashkil etadi. Shuningdek, 2025-yilning yanvar–noyabr oylarida qayta sug'urtalash xizmatlari ulushi 14,1 foiz, hayotni sug'urtalash xizmatlari ulushi esa 4,2 foizni tashkil etgani qayd etilgan (1-rasm).



1-rasm. Yillar kesimida sug'urta bozorining o'sish dinamikasi¹

Milliy iqtisodiyotning umumiy holati sug'urta kompaniyalari faoliyat yuritadigan ekotizimning kengroq va umumiy muhitini belgilaydi. Boshqa barcha tarmoqlar singari, sug'urta sohasi ham milliy iqtisodiyotning umumiy holatidan bevosita ta'sirlanadi.

Sug'urta sanoatining rivojlanishi ko'p jihatdan yalpi ichki mahsulot (YalM) hajmi va uning o'sish sur'atlari bilan chambarchas bog'liq. YalM o'sishi iqtisodiyotda yaratilayotgan boylikning ortishiga olib keladi. Boylikning ortishi esa xavf-xatarlar ta'siridan himoyalaniшни talab qiladigan iqtisodiy aktivlar hajmining ko'payishiga sabab bo'ladi. Natijada sug'urta xizmatlariga bo'lgan talab ham ortadi.

Aholi jon boshiga daromad darajasi ham milliy boylikning muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. 2025-yilda O'zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmi 3844 AQSH dollariga yetgan.

Aholining farovonlik darajasi ularning daromatlari bilan bevosita bog'liqdir. Daromad darajasi oshgani sari uy-joy, transport vositalari hamda elektron qurilmalar kabi mulkka egalik qiluvchi aholi soni ham ortadi. Shu bilan birga, aholi va korxonalar tomonidan investitsiyalar hajmi ham ko'payadi. Buning natijasida sug'urtalanishi mumkin bo'lgan aktivlar hajmi ortadi va sug'urta xizmatlariga bo'lgan talab kengayadi. Odatda sug'urta xarajatlari ham daromad darajasi bilan mutanosib ravishda ortib boradi.

Sug'urta sektorining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillardan yana biri — bu sohani tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy muhit hisoblanadi. Ayrim hollarda qat'iy tartibga solish talablari mahsulotlarni farqlash orqali raqobatning yangi yo'llarini yaratishga ma'lum darajada to'sqinlik qilishi mumkin. Shu bilan birga, davlat ayrim holatlarda tabiiy ofatlar yoki favqulodda vaziyatlar natijasida yuzaga kelgan zararlarni qoplash orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

¹ Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari https://t.me/statistika_rasmiy/7017



Masalan, zilzila, suv toshqini yoki qurg'oqchilik kabi tabiiy ofatlar yuzaga kelgan holatlarda zararlarni davlat byudjeti yoki maxsus fondlar hisobidan qoplash amaliyoti qo'llanilishi mumkin [3]. Bunday yondashuv aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, sug'urta bozorining rivojlanishiga aholining moliyaviy savodxonligi va sug'urta madaniyati ham muhim ta'sir ko'rsatadi. Madaniy va iqtisodiy xabardorlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, sug'urta xizmatlaridan foydalanishga bo'lgan moyillik ham shunchalik ortadi. Bu esa sohaning barqaror rivojlanishi va kengayishiga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat tomonidan ko'rsatiladigan iqtisodiy qo'llab-quvvatlash choralarining mavjudligi ayrim hollarda sug'urta xizmatlaridan foydalanish motivatsiyasiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli sug'urta xizmatlari bozorida muvozanatli iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, O'zbekistondagi makroiqtisodiy sharoitlar sug'urta sanoati uchun ham imkoniyat, ham muayyan sinov maydoni vazifasini o'tamoqda. 2024–2025-yillarda kuzatilgan iqtisodiy o'sish sur'atlari sug'urta bozorining sifat jihatidan rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Hozirgi kunda O'zbekiston sug'urta bozori shakllanish va rivojlanish bosqichida faoliyat yuritmoqda. Ichki omillar, xususan, menejment tizimining takomillashuvi va raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi sezilarli darajada ijobiy natijalar bermoqda.

Biroq sug'urta bozorining barqaror rivojlanishiga ayrim omillar, jumladan, iste'molchilar ishonchining yetarli darajada shakllanmaganligi hamda sug'urta madaniyatining nisbatan pastligi ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli kelgusida aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, sug'urta xizmatlarining ochiqligi va shaffofligini kuchaytirish hamda raqamli sug'urta xizmatlarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayeva Sh. Sug'urta ishi. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2014.
2. Yo'ldoshev B. Sug'urta nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2020.
3. Rasulov O'. Moliya va sug'urta. – Toshkent, 2019.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
